

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING
RIVOJLANISH YOSHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

THE AGE AND SPECIFIC FEATURES OF THE DEVELOPMENT
OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION

ВОЗРАСТ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

G'uzorova Shahrizoda Sirojiddinovna

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani

4-sonli DMTT metodisti

Annotatsiya: Maqolada Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning rivojlanish yoshi va o'ziga xos xususiyatlarinig ahamiyati yoritilgan. Bunda Maqolada Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning rivojlanish yoshi va o'ziga xos xususiyatlar haqida muhum tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В статье освещаются возрастные и специфические особенности развития детей дошкольного возраста. В этой статье даются содержательные рекомендации по возрасту развития детей дошкольного возраста и особенностям.

Annotation: The article highlights the age and specific features of the development of preschool children. This article provides meaningful recommendations on the age of development of preschool children and features.

Tayanch so'zlar: Maktabgacha ta'lism yoshi, tarbiyalanuvchi, tarbiyalash, yoshga bog'liq xususiyatlari, yosh davrlari, psixologik xususiyatlari.

Основные слова: дошкольный возраст, воспитательный, воспитательный, возрастные особенности, возрастные периоды, психологические особенности.

Key words: preschool age, educational, educational, age features, age periods, psychological features.

Kirish. Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Bolalarning tarbiyaga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyilar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdag'i bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilalar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Asosiy qisim: Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiyligi tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rGANISH metodikasini bilish muhim.

Temperament – lotincha “temperamentum”, ya’ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo’linadi:

Go'daklik (1 yoshgacha);

Ilk yosh (1-2 yosh);

Ilk yosh guruhi (2-3 yosh);

Kichik yosh (3-4 yosh);

O’rta yosh (4-5 yosh);

Katta yosh (5-6 yosh);

Maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh).

Ilk yosh davri bolalarining rivojlanishidagi o'ziga xosliklar. Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to'qiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o'taydi. Bu davrda ham bola ma'lum darajada tashqi muhit ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun ham bu ta'sirning ijobjiy bo'lishini ta'minlash lozim.

Go'dakning vazni tug'ilgan paytda 3,5 kg, bo'yisi 50 sm bo'lgan bo'lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo'yisi 60 sm, 6 oylik bo'lganda esa taxminan 7 kg, bo'yisi 64 sm bo'ladi. Bir yoshgacha bo'lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta'sirida bo'lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo'lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a'zolarini tanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham go'daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo'lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo'lgan davrda dastlabki so'zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a'zolari go'dakni to'g'ri parvarish qilishni yo'lga qo'yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo'lmashliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to'g'ri talaffuz qilib, ularning nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun keng yo'l ochishlari kerak.

Oilada bolani tarbiyalashda ota-onasi bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Otaonalar hech qachon tarbiyani o'z holiga tashlab qo'ymasligi, ya’ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi. Biz bolani nimaga o'rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz zarur, ya’ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she'rlar aytish hamda raqsga tushishni o'rgatish lozim. Ularda kattalarga jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko'nikmasi shakllanadi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Ta'lim- tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko'nikmalarni rivojlantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo'naltirilmog'i lozim.

Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og'irligi 14-15 kg., bo'yi 90-95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o'z hatti-harakatlarini idora qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo'l ochadigan ta'limiy mashg'ulotlar tizimini belgilab berishga yo'naltirilgan.

O'rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola to'rt yoshga yetgach, uning jismoniy o'sishi bir mucha jadallahshadi, bu davr mobaynida bo'yi 105-108 sm gacha o'sadi, og'irligi esa 18-19 kg bo'ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po'stlog'ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o'yinqaroq, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to'g'ri ovqatlantirish, o'z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davrda bolaning bo'yi bu davrda 7-8 sm ga o'sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og'irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo'ladi. Olti yoshga yetganda miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko'rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to'la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo'y 120 sm ga yetadi, og'irligi 22-24 kg bo'ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladiXulosa: Demak, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida rivojlanishining yoshiga bog'liq xususiyatlar juda ko'p va ahamiyatli. Bolaning rivojlanishida qanday rivojlanayotganligi yoshiga yarasha vazni, bo'y, psixologik xarakteri, qobilyati, tashqaridagi ma'lumotlari qay darajada qabul qilishi, nuqtining o'sishi, so'z boyli bularning hammasi juda katta ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ilganidan to maktabgacha ta'lim yoshiga yetguniga qadar har tomonlama me'yor jihatidan rivojlanishi kuzatuv ostida bo'lishi lozim. Chunki , har tomonlama sog'lom bola davlatimiz kelajagi demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1 "Ilk qadam" o'quv dasturi. – T., 2010. – B.5.
2. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
- 3 .<https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlanirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk keljakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi.// “Xalq so'zi” gazetasi 2018 yil 8 dekabr.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. “Ma'naviyat”, 2008, 43-bet.6. Quronov.M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz... .T. “Ma'naviyat”, 2014, 22-bet.